



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I**

2024 - yil « 2 » dekabr

452 -son

Toshkent shahri

**Oliy ta'lif tashkilotlarida talabalar bilimini baholash
va nazorat qilish tartibini takomillashtirish to'g'risida**

Respublika oliy ta'lif tashkilotlarida ta'lif sifatini yanada oshirish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomda (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) belgilangan tartiblarni inobatga olgan holda talabalar bilimini baholash tizimini takomillashtirish, jumladan, bunda ochiq-oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta'lif tashkilotlarida yakuniy nazorat turini tashkil etish va o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Mazkur chora-tadbirlar **2024/2025 o'quv yilidan** respublika oliy ta'lif tashkilotlarining bakalavriat ta'lif yo'naliishlari kunduzgi ta'lif shakliga o'qishga qabul qilingan talabalarning yakuniy nazorat ishlariga nisbatan tajriba-sinov tariqasida amalga oshirilsin.

2. Oliy ta'lif tashkilotlari rektorlari (direktorlari):

joriy o'quv yilida o'qishga qabul qilingan talabalarning **2024/2025 o'quv yili kuzgi semestridan** yakuniy nazorat turini mazkur buyruq ilovasida qayd etilgan chora-tadbirlarga muvofiq tashkil etilishini ta'minlasin;

2025-yil 1-yanvarga qadar yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan katta sig'imli auditoriyalarni belgilasin va ushbu auditoriyalarni zaruriy texnik vositalar, jumladan, ovozli rejimdagi video-kuzatuv kameralari bilan jihozlasin;

yakuniy nazorat turini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Ishchi guruhi hamda yakuniy nazorat ishlarini baholovchi professor-o'qituvchilar tarkibini tajribali, mas'uliyatli xodimlar tarkibidan shakllantirilishini ta'minlasin;

yakuniy nazorat topshiriqlari (savollari) fan dasturi (sillabusi) asosida imtihon jarayonlari boshlanishidan kamida bir oy oldin tayyorlanishini ta'minlasin va bunda topshiriqlar (savollar)ni ishlab chiqishda kafedra mudirlarining mas'uliyatini oshirish choralarini ko'rsin;

2025-yilning 5-yanvariga qadar o'tkaziladigan yakuniy nazorat turlarini keng jamoatchilik uchun oliy ta'lif tashkilotlarining rasmiy veb-saytidagi havola orqali bevosita onlayn kuzatish imkoniyatini yaratsin;

ushbu buyruq mazmun mohiyatini professor-o'qituvchilar va talabalarga yetkazilishini ta'minlasin.

3. Ta'lif muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lif sifatini ta'minlash departamenti (A. Xoliqov):

oliy ta'lif tashkilotlarida yakuniy nazorat turini tashkil etilishi va o'tkazilishini monitoring qilib borsin;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (X. Sultanov) bilan birga, **2025-yildan boshlab** har yilda kamida bir marta oliy ta'lif tashkilotlarida ta'lif sifati va bu borada kuzatilayotgan kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan onlayn so'rovnomalar o'tkazilishini ta'minlasin;

o'tkazilgan monitoring va so'rovnomalar natijalari yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga tahliliy ma'lumot va takliflar kiritib borsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinnbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir

K. Sharipov



NUSXA
ASLIGA TO'G'RI



Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil 10 dagi 12-son buyrug'i
ilova

Oliy ta'lif tashkilotlarida yakuniy nazorat turini tashkil etish va o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari

1. Mazkur chora-tadbirlar Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomga (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) muvofiq O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan oliy ta'lif tashkilotlarining **2024/2025 o'quv yilidan bakkalavriat ta'lif yo'nalishi kunduzgi ta'lif shakliga qabul qilinib**, tahsil olayotgan talabalar uchun yakuniy nazorat turini (keyingi o'rnlarda – yakuniy nazorat imtihoni) tashkil etish va o'tkazishning tashkiliy harakatlarini tavsiflaydi.

Kunduzgi ta'lif shaklidan boshqa ta'lif shakllari hamda yuqori kurs talabalarining yakuniy nazorat turlarini o'tkazishda ushbu tashkiliy chora-tadbirlarni tatbiq etish tavsiya etiladi.

2. Mazkur chora-tadbirlarda nazarda tutilmagan masalalar mavjud qonunchilik hujjatlariga ko'ra, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori hamda Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomi (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) asosida amalga oshiriladi.

3. Yakuniy nazorat imtihonlari (shu jumladan apellyatsiya komissiyasi faoliyati ham) ovozli kuzatuv kameralari bilan jihozlangan katta sig'imli auditoriyalarda o'tkaziladi hamda tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini muayyan guruh (talaba) uchun olib bormagan professor-o'qituvchilar (keyingi o'rnlarda – baholovchi professor-o'qituvchi) tomonidan baholanadi.

Yakuniy nazorat turi test shaklida bo'lganda – testlar maxsus jihozlangan kompyuter sindf xonalarda video kuzatuv ostida o'tkazilishi mumkin.

Barcha yakuniy nazorat imtihonlari, shu jumladan, baholash jarayoni bo'yicha videoyozuvlardan kamida bir yil davomida saqlanadi.

4. Yakuniy nazorat imtihonlari oliy ta'lif tashkiloti rektori (direktori) tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oldini olishni nazarda tutgan holda o'quv masalalari bo'yicha bo'linma, ta'lif sifatini nazorat qilish bo'linmasi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul bo'linma (Komlayens xizmati) hamda muayyan fandan dars mashg'ulotlarini o'tishga mas'ul bo'lmagan boshqa kafedraning professor-o'qituvchilardan iborat tarkibda tuzilgan Ishchi guruhi tomonidan o'tkaziladi.

5. Yakuniy nazorat imtihoni topshiriqlari (savollari) fanning o‘quv dasturi (sillabusi) asosida imtihon jarayonlari boshlanishidan kamida bir oy oldin tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilib, kafedra muhokamasidan o‘tkaziladi hamda tegishli fakultet dekani hamda tegishli kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda, savollarning 40-50 foizi bevosita auditoriyada o‘tilgan mavzular bo‘yicha, 50-60 foizi mustaqil ta’lim mavzularidan iborat bo‘lishi tavsiya qilinadi.

Yakuniy nazorat turi topshiriqlari (savolnomasi) va baholash mezoni kamida bir oy oldin talabalar e’tiboriga yetkaziladi.

6. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlari zimmasiga yakuniy nazorat imtihon savollarini tegishli fanning o‘quv dasturi (sillabusi) asosida sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlash majburiyati yuklanadi.

7. Yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning (savollarning) mazmuni talabaning fanni (mavzuni) o‘zlashtirishini xolis (obyektiv) hamda ularning nazariy va amaliy bilimi, ko‘nikmasi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini baholash imkoniyatini berishi lozim.

8. Yakuniy nazorat imtihonlariga talabalarni kiritish shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID karta, talabalik guvohnomasi) ko‘rsatilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat imtihonlari vaqtida talabalarning auditoriyadan uzrli sabablarsiz chiqishi ta’qiqlanadi va ruxsatsiz auditoriyadan chiqqan talabalar ushbu imtihonga qayta qo‘yilmaydi.

Imtihon jadvalida belgilangan imtihon vaqtি rasman boshlangandan so‘ng kechikib kelgan talabalar imtihonda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi.

Yakuniy nazorat imtihonlariga talabalar tomonidan turli xil vositalar, jumladan, uyali aloqa vositalari, mikro qulqochin, kompyuter hamda ko‘chirmachilikka sabab bo‘ladigan har qanday vositalarni olib kirilishi va foydalanilishi qat’iyan ta’qiqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar aniqlanganda, talaba imtihondan chetlashtiriladi. Ushbu holat imtihon jarayonlari yakunlangandan so‘ng aniqlangan (kuzatuv kamerlaridagi tasvirlar orqali aniqlanganda) taqdirda talabaning imtihon natijasi bekor qilinadi.

Fanning (modulning) xususiyatidan kelib chiqib, Ishchi guruh tomonidan yakuniy nazorat o‘tkazishda kalkulyator yoki imtihon savoliga doir qurilma va boshqa jadvallardan foydalanishga nisbatan istisnolar belgilanishi mumkin.

9. Yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazish bo‘yicha belgilangan tartiblar buzilganligi aniqlangan taqdirda, Ishchi guruhi tomonidan bayonnomalarasmiylashtiriladi va oliy ta’lim tashkiloti o‘quv ishlari bo‘yicha prorekтори (direktori o‘rinbosari)ga taqdim etiladi.

Bayonnomaga asosan, oliv ta'lim tashkiloti o'quv ishlari bo'yicha prorektori (direktori o'rinnbosari) tomonidan o'tkazilgan nazorat turlarining natijalarini bekor qilish yoki tegishli nazorat turini qaytadan o'tkazish bo'yicha ko'rsatma beriladi.

Yakuniy nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha belgilangan tartiblar Ishchi guruh vakillari tomonidan buzilganligi aniqlangan taqdirda ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi va Ishchi guruhdan chetlashtirilishi mumkin.

10. Talabalarda javoblarni aniq va lo'nda berishlarini ta'minlash maqsadida yozma shakldagi yakuniy nazorat ishlarida fanning xususiyatidan kelib chiqib, oliv ta'lim tashkiloti tomonidan so'z soniga chegara belgilanishi mumkin.

11. Yakuniy nazorat imtihonida berilgan savollarga talabalarining bergan javoblari Ishchi guruhi tomonidan shifrlanadi hamda baholovchi professor-o'qituvchilarga taqdim etiladi.

12. Baholovchi professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarining yakuniy nazorat imtihoni bo'yicha bergan javoblari belgilangan baholash mezoniga asosan xolisona tekshiriladi va baholanadi. Bunda har bir savol proporsional tarzda baholanadi.

Yakuniy imtihon ishlari va baholash natijalari Ishchi guruhiba topshiriladi.

13. Ishchi guruhi tomonidan baholash natijalari shifrlashdan yechilib, talabalarining yakuniy imtihon natijalari bir kun muddatda baholovchi professor-o'qituvchilarga tegishliligi bo'yicha qaytarib beriladi.

14. Yakuniy nazorat natijalari bo'yicha baholar tegishli professor-o'qituvchilar tomonidan yakuniy nazorat o'tkazilgan kundan keyin 3 kun muddatgacha HEMIS axborot tizimiga kiritiladi.